



GENDER ASPECTS OF EDUCATIONAL OPPORTUNITIES FOR GIRLS WITH DISABILITIES

Khonzoda Dadajonova

Student

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

E-mail: khonzodadadajonova49@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: disability, gender, social issues, social policy, education, child rearing, young generation, gender segregation, equal rights and opportunities.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: Education is considered one of the leading factors and institutions of human socialization and is an important developmental process in society. The article analyzes the social problems of girls with disabilities and the gender aspects of educational opportunities. The problems of girls with disabilities in education under the influence of gender stereotypes are analyzed, and conclusions and recommendations are given.

NOGIRONLIGI BOR QIZLARNI TA'LIM OLİSH IMKONIYATLARINING GENDER JİHATLARI

Xonzoda Dadajonova

Talaba

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: xonzodadadajonova49@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: nogironlik, gender, ijtimoiy muammo, ijtimoiy siyosat, ta’lim olish, farzandlar tarbiyasi, yosh avlod, gender segregatsiya, teng huquq hamda imkoniyat.

Annotatsiya: Inson ijtimoiylashuvining yetakchi omillari va institutlaridan biri ta’lim hisoblanib, jamiyat hayotining muhim rivojlanish jarayoni sanaladi. Maqlada nogironligi bor qizlarning ijtimoiy muammolari hamda ta’lim olish imkoniyatlarining gender jihatlari tahlil qilingan. Nogironligi bor qizlarning ta’limdagi gender stereotiplar ta’siridagi muammolari tahlil qilingan hamda xulosa va tavsiyalar berilgan.

ГЕНДЕРНЫЕ АСПЕКТЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ ДЕВОЧЕК С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Хонзода Дададжонова

Студент

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

E-mail: khonzodadadajonova49@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: инвалидность, гендер, социальные проблемы, социальная политика, образование, воспитание детей, молодое поколение, гендерная сегрегация, равные права и возможности.

Аннотация: Образование считается одним из ведущих факторов и институтов социализации человека и представляет собой важный процесс развития в общественной жизни. В статье анализируются социальные проблемы девочек с ограниченными возможностями и гендерные аспекты образовательных возможностей. Проанализированы проблемы девочек с ограниченными возможностями, затронутых гендерными стереотипами в образовании, сделаны выводы и рекомендации.

KIRISH. Insonning rivojlanish jarayoni uzlusiz bo‘lib, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy hayotida ishtiroki nuqtai nazaridan kishilar imkoniyatini muntazam ravishda kengaytirilishidan iborat. Inson uchun erkin tanlash imkoniyati uning rivojlanishi sharti bo‘lib, ayni paytda inson jamiyatining eng oliy maqsadlaridan birini ifodalaydi. Qolgan imkoniyatlardan foydalanishga yordam beruvchi eng asosiy imkoniyatlar orasida uchtasi ajralib turadi: uzoq va sog‘lom umr kechirish imkoniyati, bilim olish va turmushning munosib darajasini ta’minlay oladigan moddiy farovonlikka erishish imkoniyati hisoblanadi. Insonning rivojlanishi insoniylik jamiyatining asosiy mazmuni va mavjudlik shaklidir. Inson faoliyatining barcha turlarida taraqqiyotning zamonaviy bosqichi nafaqat insonni ijtimoiy rivojlanish markaziga qo‘yadi, balki taraqqiyot natijalarini inson taraqqiyoti yo‘lida xizmat qilishini taqozo etadi. Bu borada ta’lim olib ma’lumotlilik darajasining ortishi muhim sanaladi.

TADQIQOT USULLARI. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga ilk bor “inklyuziv ta’lim” tushunchasi kiritildi [2], bu esa jamiyatimizdagи barcha imkoniyati cheklangan bolalarning sog‘lom bolalar qatori jamiyatda mustahkam o‘rin egallashlari uchun “to‘siksiz muhit” yaratilganligining isbotidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Biz yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildik. Shu asosda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda” [3]. Shuningdek, xalqimizning ko‘p asrlardan buyon shakllanib, hayot tarzi

mazmuniga aylangan eng muhim insoniy fazilatlari: mehr-muruvvatlilik, xayr-saxovatlilik, hamdard-hamfikrlilik, olıyjanoblik kabi o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor yanada kuchaydi.

Ta’lim – jamiyat hayotining muhim jabhalaridan bo‘lib, inson ijtimoiylashuvining yetakchi omillari va institutlaridan biridir. O‘zbekistonda ta’lim tizimining rivojlanishi davlatning ijtimoiy siyosat sohasidagi ustun yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 50 moddasiga muvofiq, “har bir inson ta’lim olish huquqiga ega; ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi”[1] kafolatlanadi.

Barcha fuqarolar uchun ta’lim olishdan teng foydalanish printsipini e’lon qilar ekan, ta’lim ana shu tenglikni, shu jumladan gender tenglikni ta’minalash vazifasini bajarishi kerak. Ta’lim sohasidagi gender tenglik ta’lim olishda erkaklar va ayollarning tengligini bildiribgina qolmay, shu bilan birga ana shu imkoniyatlardan foydalanishning teng natijalarini ham anglatadi. Bu pirovardida, umuman olganda jamiyatda resurslardan foydalanishda gender tenglik printsipiga qanchalik rioya etilayotganligiga hamda jinslar o‘rtasida imkoniyatlarni tenglashtirishga bog‘liqdir.

Ta’limda gender tenglik siyosatini qo‘llanishi mazkur sohada tengsizlik mayjudligini anglashdan va uning miqyoslarini baholashga, paydo bo‘lish sabablarini tahlil etishga va kamaytirish yo‘llarini taklif etishga tayyorlikdan boshlanishi kerak.

Biroq, o‘rta maktabga kirish imkoniyati nogironligi bolmagan bolalar uchun 99,8 foizni tashkil etsa ham, nogironligi bor bolalar uchun bu ko‘rsatqich 84 foizni tashkil etadi. Kuzatilgan ko‘plab ota-onalar o‘z farzandlarini uylaridan uzoqda bo‘lgan maxsus maktablarga yuborishni istamaydilar, shuning uchun ta’lim butunlay o‘z yashash joyidagi o‘qituvchisi yoki muktab direktorining izmiga yoki uyga o‘qituvchi taklif qilishga bog‘liq. Bu holat ayniqsa kelajakda boquvchi sifatida qaralmaydigan qiz bolalarga bo‘lgan kamsituvchi munosabatda yaqqol namoyon bo‘ladi.

YUNESKOning gender bo‘yicha hisobotiga (SAGA) ko‘ra [5], bunga asosiy sabablar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

“*Kasb tanlashdagи farqlar*. Bunda ayollar erkaklarga qaraganda ko‘proq odamlar jamoasida faoliyat yuritishga oid bo‘lgan kasblarni tanlashadi.

Hayotiy qadriyatlardagi farqlar. Ayollar o‘z oilalari, bolalari, ota-onalari uchun o‘z kasblaridan kechishga ko‘proq tayyor bo‘ladilar.

Ishonch va o‘z-o‘zini anglash. Qizlar o‘zlarining iqtidor va qobiliyatlarini tashqi muhit munosabatlari sabab judayam past baholaydilar. Boshlang‘ich va o‘rta muktab o‘quvchi qizlari, o‘zlarini fan va texnikada muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan tug‘ma aqlga ega emas deb noto‘g‘ri hisoblaydilar.

Gender stereotiplari. Ota-onalar va o‘qituvchilar qizlarni fan, texnika, dasturiy texnologiyalarga oid murakkab sohalarda qobiliyatlarini yetarlicha baholamaydi. Bunday qibiliyatlar o‘gil bolalarda ko‘proq deb hisoblaydilar.

Gender tarafkashligi. Fan, texnologiya, muhandislik va matematika akademik sohalar fanlari bo‘yicha yirik korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarda ayollarni ishga olish va rag‘batlantirishda gender bo‘yicha yaqqol tarafkashlik mavjud”[5].

NATIJALAR. Aynan mana shunday muammolar sabab qizlarning bolalikda bilim olishlariga e’tibor berilmaydi, ayniqsa nogironligi bo‘lgan qizlarga. “Xuddi shunday, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalaridan foydalanish darajasi 20 foiz past bo‘ladi, bu esa nogironligi bo‘lgan bolalarni yuqori sinflarda kamayishini kuchaytirishi mumkin. Umumta’lim maktablariga o‘qishga kirish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun 22 foizga, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limiga esa 46 foizga kam. Qonunchilik, siyosat va me’yoriy hujjatlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning (bu, ko‘rish muammolari mavjud kishilardan tashqari) baholash va imtihonlarning moslashuvini nazarda tutmaydi, bu esa nogironligi bo‘lgan bolalarni ishga joylashishga va mustaqil hayot kechirishiga olib keladigan har qanday turdagि ta’limdan foydalanish imkoniyatini cheklaydi”[4, 205-b.].

Umuman ta’lim muassasalarining har xil turlarida tahsil olayotgan erkaklar va ayollar sonining nisbati nomutanosibdir. Masalan, o‘rta maxsus kasb-hunar maktablari va texnikumlarda (bu ayniqsa pedagogik yo‘nalishlarda) ayollar ulushining ko‘pligi kuzatiladi. Ta’lim muassasalarining boshqa turlarida esa – erkaklar ulushi ustunlik qiladi, ayni vaqtida professional va oliy o‘quv yurtlarida bu holat muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim olayotgan erkaklar va ayollar ulushi o‘rtasidagi eng katta farq oliy ta’lim tizimida kuzatiladi. (1-jadvalga qarang).

Nº	Fakultet	Jami nogironlar soni	1-guruhi	2-guruhi	3-guruhi	Qizlar soni	O‘g‘il bolalar soni
1.	Filologiya	18	1	16	1	15	3
2.	Chet tillari	21	2	19	-	12	9
3.	Iqtisodiyot	8	-	8	-	1	7
4.	Agrar	2	-	2	-	1	1
5.	Pedagogika-psixologiya va san’atshunoslik	34	6	28	-	27	7
6.	Fizika-matematika	12	1	11	-	4	8
7.	Ingliz tili va adbiyoti	11		11	-	8	3
8.	Tabiiy fanlar	22		21	1	15	7
9.	Tarix	33	1	32	-	12	21
10.	Harbiy ta’lim	0	-	0	-	0	0
11.	Jismoniy madaniyat	29	1	28	-	3	26
12.	Magistratura	45	22	23	-	21	24
Jami		235	34	199	2	119	116

1-jadval.

Farg‘ona davlat universitetida tahsil olayotgan nogironligi bor talabalar

So‘nggi yillarda mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan yoshlarni ta’limning turli bosqichlarida sifatli tahsil olishlarini ta’minalash maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning farmoniga ko‘ra, 2018 – 2019 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun belgilangan o‘rinlar umumiy sonidan kelib chiqib, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qo‘srimcha ravishda ikki foizli kvota ajratish tartibi joriy etildi. Bu farmon nogironligi bo‘lgan ko‘plab shaxslarga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Lekin bu boradagi muammolar talaygina.

MUHOKAMA. Ta’lim har bir shaxs uchun teng imkoniyatlar yaratishning muhim omillaridan biridir. Universitetlarda nogironligi bo‘lgan talabalar uchun inklyuziv ta’lim sharoitlarini yaratish nafaqat ularning bilim olish huquqini ta’minalash, balki jamiyatga to‘liq integratsiyasini ham qo’llab-quvvatlaydi. Farg‘ona davlat universitetida tahsil olayotgan nogironligi bo‘lgan talabalar soni, ularning guruhlarga taqsimlanishi hamda gender jihatidan farqlarini sotsiologik tahlil qilish orqali bir nechta jihatlarini ko‘rib chiqamiz. (1-jadvalga qarang).

Tahlil qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, universitetda jami **235 nafar** nogironligi bo‘lgan talabalar tahsil oladi.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra universitetda ta’lim oladigan talabalar gender jihatdan nisbatan teng taqsimlanganini ko‘rsatadi, yani qizlar 50,6% ni, o‘g‘il bolalar 49,4% ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, filologiya, pedagogika-psixologiya va san’atshunoslik, tabiiy fanlar kabi yo‘nalishlarda qizlar ustunlik qiladi. Jismoniy madaniyat, iqtisodiyot, fizika-matematika, tarix kabi fakultetlarda esa aksincha, asosan o‘g‘il bolalar ulushi ko‘proq. Ayollarni ta’lim va fan sohasida rag‘batlantirish, shuningdek STEM (Fan, texnologiya, muhandislik, matematika) laboratoriylar yaratish orqali ularni tabiiy va texnik fanlar sohasiga jalb qilish choralar ko‘rilmoxda. Tahlil natijalariga ko‘ra, universitetda nogironligi bo‘lgan talabalar uchun ta’lim olish imkoniyatlari mavjud. Nogironligi bor talabalar universitetning barcha ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy yo‘nalishlarida faol, har sohada o‘z imkoniyatlarini namoyish qila oladi. Ularning o‘z iqtidorlarini to‘liq namoyon qilishlari uchun inklyuziv ta’lim sharoitlarini yanada yaxshilash muhimdir. Shu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar kelajakda ta’lim tizimining yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, uzoq va tog‘li hududlarda yashash, qashshoqlik, erta turmush qurish va homiladorlik, nogironlik, gender zo‘ravonlik va ayollarining roli va mavqeiga nisbatan shakllangan an’anaviy munosabat qizlar va ayollarining ta’lim olish va ishga joylashish uchun qonuniy huquqlaridan to‘liq foydalanishiga imkon bermaydigan asosiy to‘siqlardir. Ta’limdagি, shuningdek kengroq ma’noda inson kapitalidagi hamda ish haqi darajasidagi tengsizliklar davlat iqtisodiyoti uchun salbiy oqibatlarga olib keladi.

Ta’lim sohasidagi ko‘plab islohotlarga qaramay, agar ayollar ta’lim olish yoki o‘z malakalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmasalar, tadbirkorlik va bandlikka taalluqli qonun hujjatlarida ayollar va erkaklar huquqlarini tenglashtirish kam ahamiyatli bo‘lishi mumkin.

Nogironligi bo‘lgan qizlar ko‘pincha nogironliklari va gender maqomi sababli ikki hissa ko‘proq kamsitishlarga duch keladilar. Nogiron qizlarning tegishli darajada ta’lim olish yoki mashq qilish; sog‘liqni- saqlash va reabilitasiya; yoki bandlik imkoniyatlaridan foydalanishda nogironligi bo‘lmasalar qizlarga nisbatan kamroq sharoitlari mavjud bo‘ladi. Oqibatda, ko‘pincha jamiyatning siyosiy va ijtimoiy hayotidan chetlashtirilgan holda ularning kambag‘allikda va yolg‘izlikda yashash ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Yuqorida xulosalarga tayangan holda quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

1. Inklyuziv ta’lim muhitini yaxshilash – nogironligi bo‘lgan talabalarni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun binolarda, kutubxonalarda, auditoriyalarda va munosabatlarda to‘siqsiz muhitni yaratish;
2. Nogironligi bor xotin-qizlarning ta’lim olishlari uchun qo‘srimcha imtiyozlarni doimiy takomillashtirib borish;
3. Texnik infratuzilmani yaxshilash – universitet hududida maxsus moslamalar, panduslar, liftlar kabi qulayliklarni kengaytirish;
4. Psixologik qo‘llab-quvvatlash – ko‘plab tosiqlarga qaramasdan ta’lim olish dargohida o‘qiyotgan yoshlarimizni har tomonlama qo‘llab quvatlash jamiyatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023-y. (<https://lex.uz/docs/-6445145>)
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 y. 23 sentabr
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: O‘zbekiston 2018. B. 71
4. Yulbarsova X. Oila va gender sotsiologiyasi. Darslik, – Farg‘ona, 2024. – 327 b.
5. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000266102>